

F.M.DOSTOYEVSKIYNING "OYDIN TUNLAR" ASARIDA ESKAPIZM VA  
XAYOLIY IDEALIZM MASALASITHE ISSUE OF ESCAPISM AND IMAGINARY IDEALISM IN F.M.DOSTOEVSKY'S  
"WHITE NIGHTS"

Boqiyeva Irodaxon Ibrohimbek qizi

Fardu, Filologiya va tillarni o'qitish

(o'zbek tili) 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18785882>**Annotatsiya**

Mazkur maqola "Oydin tunlar" asaridagi eskapizm, xayoliy idealizm, bosh qahramonning yolg'izligi, xayollari, ichki monologlari va bu orqali yozuvchi o'quvchilarga nima demoqchi ekanligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Eskapizm, xayoliy idealizm, xayol, yolg'izlik, bosh qahramon, reallik, ruhiy kechinma, psixologiya.

**Annotation:** This article discusses escapism, imaginary idealism, main character's loneliness, thoughts, and inner monologues in the story "White Nights" and what the author intends to convey to the readers through these elements."

**Keywords:** Escapism, imaginary idealism, imagination, loneliness, main character, reality, inner feelings, psychology.

**Kirish:** "Oydin tunlar" XIX asr iste'dodli rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiy tomonidan yozilgan. Asar 1848-yilda nashr qilingan bo'lsa-da, hozirgi kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Mazkur asarda insonning ruhiy kechinmalari, yolg'izlik va xayollarni ideallashtirish orqali hayotga bo'lgan qarashlar namoyon bo'ladi. Asar juda qisqa bo'lsa ham, lekin ichki psixologik portretlar chuqur tasvirlangan. Dostoyevskiy asarlarining deyarli barchasi psixologiya bilan bevosita bog'liq. "Oydin tunlar" asari ham ana shular jumlasidandir. Asar voqealari Peterburg shahrida kechadi. Qissa birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi, bu esa bosh qahramonning ruhiy kechinmalarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qilgan.

**Asosiy qism:** Eskapizm va xayoliy idealizm asarning bosh mavzularidan biri hisoblanadi. Eskapizm psixologida keng qo'llaniladigan terminlardan biri bo'lib, *eskapizm (escape — „qochmoq“)* bu kundalik hayotning yoqimsiz yoki zerikarli tomonlaridan, odatda, xayoliy yoki ko'ngilochar faoliyatlar orqali ruhiy og'ish yoki chalg'ishdir. Eskapizm insonni doimiy ruhiy tushkunlik yoki umumiy qayg'u hislaridan chalg'ishi, ularni chetlab o'tishi uchun foydalanilishi mumkin.<sup>1</sup>

Eskapizmni bosh qahramon-xayolparast orqali bilishimiz mumkin va bu bosh qahramonning ichki dunyosini ochib berishda muhim rol o'ynagan. Dostoyevskiy bu jarayonni tafsilotli va hissiy jihatdan boy tasvirlab, inson psixologiyasining nozik qirralarini o'rganish imkoniyati berdi. "Xayolparast kul titkilayotgan kishidek eski chog' axtargandek uni puflab o't oldirmoqchi va ana shu olov bilan sovuq badanini isitmoqchidek rosa urinadi"<sup>2</sup>, "Ma'lum soatlarda bir paytlar o'zimcha xayolan baxtiyor bo'lgan joylarga borib, o'tmishni eslashni, hech qachon qaytmaydigan bo'lib o'tib ketgan damlar xayolida bugunimni yaratishni yaxshi

*ko'radigan bo'lib qoldim*"<sup>1</sup> qissadan olingan mazkur jumlar orqali xayolparast hayotdan qoniqmasligi, yolg'izlik azobi sababli uning tushlari va xayollari u uchun xuddi qorong'i xonaga tushgan bir shul'aga va u bilan ovunmoqchi bo'lganga o'xshaydi. Ya'ni u zerikarli va har doim birdek o'tadigan hayotidan ko'ra xayollari va tushlarida yashashni va uni ideallashtirishni afzal ko'radi.

*Idealizm (qadimgi yunoncha: ἰδέα — idea so'zidan) — falsafadagi asosiy oqimlardan biri; ong, ruh, tafakkur birlamchi, materiya, tabiat, borliq ikkilamchi deb talqin etuvchi qarashlar tizimi.*<sup>4</sup> Bu orqali xayolparast o'zining xayollarini ideallashtiradi(mukammallashtiradi). Buning bir nechta sabablari mavjud. Masalan, bosh qahramon odamlardan ajralgan, yaqin kishilari yo'q, haqiqiy hayotda u o'zini keraksiz va begona his qiladi. Shuning uchun u xayoliy dunyo yaratib, o'sha yerda o'zini baxtli inson sifatida tasavvur qiladi. Bundan tashqari, u juda nozik qalbli va hissiy inson bo'lib, oddiy voqealarni ham xayolida ulkan va mukammal muhabbat darajasiga ko'taradi. *“Xayolparastman; hayotimda voqelik kam, bunday daqiqalarni qaytadan xayolan boshdan kechirmasam iloji yo'q. Sizni butun tun bo'yi, butun hafta, butun yil bo'yi o'ylab yuraman endi”*<sup>2</sup> Mazkur jumla orqali qahramon real hayotida katta voqealar yo'qligini tan oladi va shuning uchun qisqa uchrashuvlarni ham butun umrga tatigulik baxt deb biladi. U his-tuyg'ular bilan xayolda takrortakror yashab, ularni ideallashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, “Oydin tunlar” qissasida eskapizm qahramonning real hayotdagi yolg'izlik va haqiqatdan qochish usuli sifatida tasvirlanadi. U voqelikdagi kamchiliklar va yetishmovchiliklarni xayollar, tushlar orqali to'ldirishga harakat qiladi. Xayoliy idealizm esa uning muhabbat va baxtini haddan tashqari mukammallashtirib tasavvur qilishida namoyon bo'ladi. Qahramon uchun xayol dunyosi haqiqatdan ko'ra go'zalroq vaxavfsiz hisoblanadi, lekin asar shuni ko'rsatadiki, haqiqatdan qochish insonni vaqtincha ovutadi, ammo hayot haqiqatlari baribir yo'qolmaydi. Dostoyevskiy shu orqali insonning ruhiy o'sishi faqat haqiqatni qabul qilish orqali yuz berishini ta'kidlaydi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. “Oydin tunlar”/F.M.Dostoyevskiy/Toshkent
3. Problems of Dostoevsky's Poetics / Mikhail Bakhtin. — Moscow, 1963.

1 “Oydin tunlar”/F.M.Dostoyevskiy/mutolaa/Toshkent-2024/55-bet

4 [https://uz.wikipedia.org/wiki/Idealizm#:~:text=Idealizm%20\(qadimgi,mavjud%2C%20deb%20biladi.](https://uz.wikipedia.org/wiki/Idealizm#:~:text=Idealizm%20(qadimgi,mavjud%2C%20deb%20biladi.)

2 “Oydin tunlar”/F.M.Dostoyevskiy/mutolaa/Toshkent-2024/24-bet